

INNOVATSION TEKNOLOGIYALARNI TA'LIM JARAYONIDA

QO'LLASHNING USTUVORLIGI"

Shahnoza Bahronova Shavkatulloyevna

Annotation:

Ushbu maqolada ona tili darslarida turli metodlardan, shuningdek, audiomatnlardan foydalananishni afzalliklari tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: Ona tili, metod, audiomatn.

«Ona tili va adabiyot» darslariga noan'anaviy darslarni olib kirish va uni ta'lismazmuniga singdirish, dars o'tishning yangi-yangi usullarini topish Davlat ta'lismastartlari talablarini bajarishga zamin yaratadi. Inson shaxsini har tomonlama kamol toptirish, o'sib kelayotgan yosh avlodda umuminsoniy va milliy qadriyatlargacha hurmat tuyg'usini uyg'otishda, milliy tilga, o'z xalqining an'analariga iftixor hissini kamol toptirishda «Ona tili va adabiyot» darslarining o'rni beqiyosdir.

Shuningdek, hozirgi davrda XXI asr pedagogidan nafaqat nazariy bilim balki shu bor bilimni o'quvchilar ongiga samaraliroq usullar orqali yetkazish, berilgan bilimning oson, puxta va tez o'zlashtirilishiga zamin yaratish, o'quvchilar ongida mantiqiy fikrlash, ijodkorlik va raxonlikni shakllantirish ham talab etilmoqda. Albatta bunday vazifalar innovatsion texnologiyalar, turli xil interaktiv o'yinlar orqali amalga oshiriladi. Demak, endi o'qituvchidan an'anaviy darsdan noan'anviy darsga o'tish talab etiladi: Noan'anaviy darsning asosiy yo'naliishlari: a) o'quvchilarga mustaqil fikr yuritishni o'rgatish; b) o'quvchi fikrini bir nuqtaga jamlash; d) o'quvchilarda fan asoslari, yutuqlari to'g'risida aniq tushuncha hosil qilish; e) olgan bilimlarini amaliyotda qo'llash va boshqalarga o'rgatish va hokazo. Noan'anaviy darslarni esa interaktive metodlar va o'yinlarsiz tasavvur etish qiyin, zero bular darsning o'zagini tashkil etadi,

Misol uchun, murakkab mavzuni o'quvchilar ongiga osongina etkazish uchun «Aqliy hujum», «Zakovat», «Zigzak», «Interfaol», «O'yin dars», «Munozaralibahsli dars», «Sayohat dars», «Musobaqa dars», «FSMU», «Baliq skeleti», «Charxpalak» kabilarning o'quv jarayonida qo'llash alohida ahamiyatga ega. Darslarda qo'llanadigan interaktiv usullar o'quvchilarda o'z ona tili va yurtiga mehrmuhabbat tuyg'ularini uyg'otish, ularni mukammal savodxonlik darajasiga ko'tarish, mantiqiy aniq va to'liq nutq sohibi bo'lishiga erishish kabi muhim



vazifalarni bajarishni nazarda tutadi. Bu kabi interaktive metodlar va o'yinlarning dars davomida foydalanilishi avvalo, pedagog mahorati bilan bogliq. Sababi, metodlar darsdan bir kun oldin tayyor holga keltirilishi, kerakli ko'rgazmali qurollar, tarqatma materiallar, qisqa savoljavob va testlar, baholash mezonlarini shakllantirish shuningdek o'rganuvchilarni rag'batlantirish va jazolash maqsadga muvofiq. Har bir metod o'quvchilarning yoshi, qiziqishlari, o'gil bolalar va qiz bolalar sonining proporsiyasi, o'zlashtirish jarayoning tez yoki nisbatan sekin ekanligi, qobiliyatları va ustunlik jihatlarini hisobga olgan holda oson va qiyin turlarga bo'lingan holda tanlanishi va tayyorlanishi muallimdan talab etiladi. Bundan tashqari 45 daqiqa davom etadigan dars mashg'ulotida harakatli o'yinlarning mavjudligi ha alohida ahamiyatga ega.

Chunki, bolalarni charchatmaslik va ularni oqilona tanlangan 3-4 daqiqalik harakatlari o'yilar orqali miyaga va mushaklarga dam berish ham ustozning vazifasi hisoblanadi. Dars jarayonlarida notiqlik, suhbat, hikoya, mustaqil ish, yozma ish, hozirgi zamon bilan bog'lash orqali ijtimoiy-siyosiy bilimlarni ham oshirib borish, mustaqil fikrga tayanish shakllariga katta e'tibor berilishi lozim. Yana bir e'tiborga olinishi lozim bolgan jihat bu ona tili va adabiyot darslari davomida computer texnologiyalardan foydalanishdir. Buning uchun birinchi navbatda o'qituvchi sinfonani kerakli jihozlar bilan ta'minlanishini tashkil etishi, so'ngra mavzuga doir taqdimotlar, videolar, qisqa filmlar, rasmlar va ijod namunalarini yaratishi yoki internet saytlaridan sifatlilarini tanlab yuklab olishi lozim. Buning asosiy sababi, ular o'quvchilarning ijodkorligini va dunyoqarashini kengaytirishga, visual o'rganishni rivojlantirishga va albatta o'quv jarayonining qiziqarliroq va sifatliroq tashkil etilishiga yordam beradi.

Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarga topshiriqlarda audiomatnni tinglab tushunishlari va shu asosida topshiriqlarni bajarishlari yuzasidan topshiriqlar qo'yilgan. Ushbu darslik xalqaro baholash tizimlariga mos ravishda tuzilgan bo'lib, darslikdan asosiy maqsad o'quvchilar o'z fikrlarini tinglab va o'qib tuhunishlari, fikrini bayon eta olishlariga erishish hisoblanadi. Ushbu darslik bilan bir qatorda o'qituvchi kitobi, o'quvchilar mashq daftari va fan multimedia ilovalari ishlab chiqilgan. Asosan darslikda audiomatnlar uchraydi. O'quvchilar ushbu matnlar orqali tinglab tushunishlari lozim bo'ladi. 2-sinf "ona tili va o'qish savodxonligi" darsligida keltirilgan mashqlardan misollar keltiramiz.

"Maktabim- ikkinchi uyim" bo'limida "Maktab" audiomatnini tinglang topshirig'i berilgan va quyidagi savollar qo'yilgan:



Proceedings of International Scientific Conference on Multidisciplinary Studies Hosted online from Moscow, Russia

Date: 11th February, 2023

ISSN: 2835-5733

Website: econferenceseries.com

1. *Maktabda qanday bilimlar o'rgatiladi?*
2. *Maktabda olinadigan bilimlar nima uchun kerak?*
3. *Maktabda o'qish majburiy ekani qaysi hujjatda yozib qo'yilgan?*
4. *Qadimda maktablar qanday nomlangan?*
5. *Tarixda ta'limning mакtabдан keyingi bosqichi nima deb ataladi?*
6. *Zamonaviy ko'rinishdagi ilk maktablarni kimlar ochgan?*
7. *Hozir yurtimizda qancha maktab bor?*

Ushbu berilgan savollarga o'quvchilar berilgan audiomatnni tinglab tushunib javob berishlari lozim hisoblanadi. Bunda o'qituvchi matnni o'quvchilarga eshittirishda axborot texnologiyasidan foydalanadi. Bundan tashqari darslikni ishlab chiqishda asosan rangli tasvirlardan foydalanilgan. O'quvchilar berilgan tasvirga qarab o'z fikrlarini bayon etadilar va mustaqil ravishda matn tuzadilar. Bunday mashqlarni bajarishda darslikda berilgan tasvirni monitorda ko'rsatilsa o'quvchilarning tushunishlari osonlashadi va tasvirlangan jarayon yanada aniq ko'rindi.

Dars davomida o'qituvchi o'quvchilarga bilim berishda didaktik o'yinlardan foydalanishi ham mumkin bo'ladi. O'yinni tashkil etishda ham monitordan foydalanadi."Davom ettir" didaktik o'yini ona tili darslarida keng qo'llaniladigan o'yinlardan biri hisoblanadi. Monitorda o'quvchilar biror matn yuzasidan berilgan gaplarning boshlanishini o'qiydilar, keyin jumlalarni o'zları oxiriga yetkazadilar. Masalan:

1. *Olma ye gohi-*
2. *Turli oshko 'kat-*
3. *Bil, oddiy tuxum-*
4. *Ichmoqlikn sut*

Ushbu mashq darslikda berilgan. Monitor yordamida yanada o'quvchilarga tushunarli bo'ladi. Ushbu mashqlarda multimediadan foydalanish quyidagi afzalliklarga ega:

- ona tili darslarida ko'rgazmalilik eng asosiy o'rnlardan birini egallaydi;
- berilgan topshiriq o'quvchini mustaqil izlanishga undaydi;
- o'quvchi dars davomida bir vaqtning o'zida ham ko'radi, ham eshitadi, ham tushunib oladi;
- o'quvchilarga kengroq qamrovdag'i va kattaroq hajmdagi materiallarni yetkazib beriladi;
- mashg'ulot davomida o'quvchilar bilimi kengayadi.



Proceedings of International Scientific Conference on Multidisciplinary Studies Hosted online from Moscow, Russia

Date: 11th February, 2023

ISSN: 2835-5733

Website: econferenceseries.com

Xulosa qilib aytganda, ona tili darslarida zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish o‘quvchilarda mustaqil fikr yuritish, tinglab tushuna olish, zamonaviy texnika yordamida erkin fikr yuritish ko‘nikmalarini hosil qiladi va rivojlantiradi. Kompyuter texnologiyalaridan foydalanib dars tashkil etilsa, o‘quvchilar mavzu yuzasidan ko‘proq ma‘lumotga ega bo‘ladilar. “Ona tili va o‘qish savodxonligi” darsligini axborot texnologiyalari yordamida tashkil etish hozirgi zamon talablariga to‘la mos keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati:

1. "Axborot texnologiyalari sohasida ta ‘lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari tog“risida”gi PQ-4851. 06.10.2020
2. Siddiqova Sh." Izlanish samaradorligi" mavzusidagi respublika yosh tilshunoslar va adabiyotshunoslarning ilmiy-nazariy anjumani. "O‘zga gap va matn intertekssualligi" mavzusidagi maqola.B-62
3. Mirsaidov K.J. Ixtisoslik fanlarini o_ qitish va ishlab chiqarish ta‘limi. – Toshkent: Oqituvchi, 1996.